

O‘ZBEK TILINI CHET TILI SIFATIDA O‘QITISHDA AUDIOVIZUAL MATERIALLARDAN FOYDALANISH TAMOYILLARI

Israilova Zuxra

Annotatsiya: Audiovizual materiallar til o‘rganuvchilarning o‘qitilayotgan tilga nisbatan ishtiyoq va qiziqishlarini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Shu bilan birga, audiovizual materiallar ularning til o‘rganish va o‘zlashtirish jarayonidagi irodasini tarbiyalashga ham xizmat qiladi. Psixologlarning ta’biri bilan aytganda, irodani shakllantirish ko‘zlangan maqsadga erishishda o‘z faoliyatini ongli tashkil etish, faoliyat jarayonida uchragan qiyinchiliklarni bartaraf etish vositalarini, usullarini izlashni taqozo etadi.

Kalit so‘zlar: audiovizual materiallar, tamoyil, chet tili, zamonaviy texnologiyalar, podkast, subtitrlar, illyustrativ materiallar

Mavzuga oid o‘rganilgan manbalar shuni ko‘rsatdiki, audiovizual materiallari saralash tashkil etiladigan dars maqsadi va vazifasidan kelib chiqib muayyan printsiplar asosida amalga oshiriladi. Jumladan, rus olimi T. S. Malisheva bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarida ijtimoiy madaniy kompetentsiyani shakllantirish bo‘yicha olib borgan tadqiqotida autentik videomateriallarni saralashni ijtimoiy-madaniy kompetentsiya mezonlari asosida amalga oshirilishini ilgari surgan³⁸. Boshqa mualliflar esa chet tilini o‘qitishda audiovizual vositalardan foydalanish mezonlarini ishlab chiqishgan va bir necha didaktik tamoyillarni ajratishgan. Jumladan, G. G. Joglina ta’rifida kommunikativ kompetentsiya tamoyillari asosiy me’yor sifatida ajratib ko‘rsatilgan:

- audiovizual materialning ta’limiy maqsadlarga mosligi;
- audiovizual materialdagi axborotning yangiligi va ixchamligi;
- audiovizual materialni o‘quvchining o‘rganilayotgan til bo‘yicha bilim darajasiga muvofiqligi;
- tanlangan audiovizual material mazmunining hayotiyligi kabi³⁹.

Rus olimi I. L. Bim esa autentik videomaterialni saralashda uning tashkiliy qismiga ko‘proq e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydi va chet tilini o‘qitishda audiovizual vositalardan foydalanish tamoyillarini quyidagilarda ko‘radi:

- didaktik materiallarning maqsadga yo‘naltirilganligi tamoyili;

³⁸ Григорьев С.Г. Мультимедиа в образовании / С.Г.Григорьев, В.В.Гриншкун. - М.: Педагогика, 2002.

³⁹ Носкова Т.Н. Аудиовизуальные технологии в образовании / Т.Н.Носкова. - СПб.: СПбГУКиТ, 2004.

- didaktik materiallarning real hayotga mosligi tamoyili;
- ko‘rgazmalilik tamoyili;
- pedagogik jarayonning ijobiy hissiy fonda kechishi tamoyili ⁴⁰kabi.

Audiovizual materialning ta’limiy maqsadlarga mosligi tamoyili. O‘zbek tilini chet tili sifatida o‘qitishda tanlangan audiovizual materialning ta’limiy maqsadlarga mosligi muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi muayyan darsga tayyorgarlik ko‘rish davomi (Pre-Watching)da audio-video materiallarning dars mazmuniga mos bo‘lishiga alohida ahamiyat qaratishi kerak. Bu, albatta, audio-video materiallarni darsda qo‘llashning an’anaviy uch bosqichining birinchisi bo‘lib, ularni namoyish qilishgacha bo‘lgan jarayon sanaladi. Masalan, til o‘rgatuvchining maqsadi – “Mening qiziqishlarim” mavzusini o‘rgatish va shu mavzuga oid so‘zlarni o‘rgatishni maqsad qilgan bo‘lsa, birinchi navbatda, til muammolarini bartaraf etish uchun til o‘rganuvchilarga mavzuga mos yangi so‘zlar jamlanmasini taqdim etilishi o‘rinli sanaladi. Bu esa til o‘rganuvchilarning faollashishiga, mavzuga qizishlariga sabab bo‘ladi. Ya’ni ular taqdim etilayotgan o‘zbek tilidagi yangi so‘zlarni o‘qituvchi nazoratida o‘rganishlari mumkin bo‘ladi. Masalan, tavsiya xarakteridagi ko‘gazmalilikka bir misol:

Mashq. Rasmda ko‘rganlaringizni harakat fe’llari bilan ifodalang.

Faoliyat turlari ro‘yxati:

Kriket o‘yna-	Rolikda uch-
Raqs guruhiga bor-	Regbi o‘yna-
Skeytbordda uch-	Suvda suz-
Futbol o‘yna-	Kemada suz-
tennis o‘yna-	drama guruhiga bor-

Bunday illyustrativ vizual materiallar til o‘rganuvchilarning so‘z boyligini oshirishga va o‘rganilgan so‘zlar yordamida so‘z birikmalari va jumla tuzishga yordam beradi, qolaversa,

⁴⁰ Бим И.Л. Обучение иностранным языкам: поиск новых путей // Иностранные языки в школе. - 2003.- № 1.

o‘zbek tilida fikrlashlariga imkon yaratadi, ularning kognitiv faoliyatlarini rag‘batlantiradi, tilni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi.

Audiovizual materialdagi axborotning yangiligi va ixchamligi tamoyili.

Audiovizual material orqali taqdim etilayotgan ma’lumotlar auditoriya uchun qanchalik yangi bo‘lsa, ularni dars jarayoniga qiziqtirish shunchalik oson kechadi. Natijada audio-video material orqali o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan oldimizga qo‘ygan maqsadimiz – tilning muayyan aspektini samarali o‘rgatishga ershamiz. Shuningdek, audio-vizual materialning hajmi va davomiyligi ham juda uzun bo‘lmasligi maqsadga muvofiq. Hajman qisqa va ixcham bo‘lgan material til o‘rganuvchining zerikib qolishining oldini oladi. Agar audio yoki videomaterialning davomiyligi juda uzoq vaqtni oladigan bo‘lsa, undagi asosiy mazmun til o‘rganuvchilar tomonidan ilg‘ab olinishi murakkab kechishi, tushunmagan videoni ko‘rgach, mashg‘ulotga nisbatan zerikish uyg‘otishi mumkin. Masalan, biz auditoriyaga “Ob-havo” mavzusini o‘tmoqchimiz. Bilamizki, ushbu mavzu yuzasidan internetda ham, televizion ko‘rsatuvlar orasida ham anchagina videomateriallar mavjud. Biroq, biz ular orasidan duch kelganini tanlab ololmaymiz. Uning ham texnik, ham leksik jihatlariga e’tibor berish bilan birgalikda davom etish vaqtini ham hisobga olishimiz lozim. Ob-havo ma’lumoti uchun o‘rtacha bir daqiqa davom etadigan video yetarli. Qolaversa, undagi so‘zlarning tuzilishi, ixchamligini ham inobatga olishimiz maqsadga muvofiq. Quyidagi havola orqali ob-havo ma’lumotlari taqdim etilgan videoni tomosha qilish mumkin.

<https://youtu.be/Ar6fjeNGaeY>

Videoda O‘zbekistonda kuzatilishi kutilayotgan bir haftalik ob-havo ma’lumotlari haqida aytilgan. Video davomida O‘zbekistonning aprel-may oyidagi ob-havo sharoitining qiyosiy ma’lumotlari va boshqa qo‘shimcha ma’lumotlar ham gapiriladi. Biroq, endigina til o‘rganayotgan auditoriya uchun (A1,A2 daraja) bu ma’lumotlarni tushunish biroz qiyinroq kechadi. Shuning uchun bu ma’lumotni boshlang‘ich til o‘rganuvchilar uchun taqdim etmaslik, yoki uni ixchamlashtirgan holda (VideoCut rejimida) namoyish etish lozim.

Audiovizual materialni o‘quvchining o‘rganilayotgan til bo‘yicha bilim darajasiga muvofiqligi tamoyili.

Mazkur tamoyilda materialning til o‘rganuvchi shaxsiga moslik darajasi haqida gap borar ekan, avvalo, uning yosh-xususiyatlari va o‘rganilayotgan til bo‘yicha bilim salohiyatini inobatga olishimiz lozim.

Agar til o‘rganuvchi boshlang‘ich darajadagi bilimga ega bo‘lsa, birinchi navbatda biz audiovizual materialdagi nutq tezligi va so‘zlar ko‘lamiga e’tibor qaratishimiz kerak. Fonetik jihatdan talaffuzi soddaroq bo‘lgan so‘zlardan tarkib topgan audio-vizual materialning tanlanishi til o‘rganuvchiga mavzuni tushuntirish maqsadiga oson va tezroq

erishtiradi deb hisoblaymiz. Sababi, murakkab talaffuzli va o'ta badiiy bo'yoqdor so'zlar boshlang'ich darajadagi til o'rganuvchi uchun anchagina qiyinchilik tug'diradi. O'rta va yuqori bilim darajasidagi til o'rganuvchi uchun aksincha, kengroq sinonim qatorga ega so'zlardan tashkil topgan material tanlash mumkin. Masalan, "O'zbek to'ylari" mavzusidagi madaniyat darsida biz yurtimizda o'tkaziladigan to'ylar haqida ma'lumot bermoqchimiz. Mazkur mavzu yuzasidan bir qancha leksik, grammatik bilimlar berilishi mumkin. Biroq, biz to'y tasvirlari tushirilgan videoni auditoriyaga namoyish etishimizning o'zi yetarli emas. Ko'rgani haqida eshitish yanda samaraliroq. Shunday ekan, biror to'yning vizual variant namoyish etilganda, u videoda qanday marosimlar olib borilayotgani haqida audiomaterial ham taqdim etilishi yanda samaraliroq bo'ladi.

Ushbu mavzu yuzasidan "To'ylar muborak" qo'shig'ini boshlang'ich darajadagi til o'rganuvchilarga qo'yib berishimiz xato bo'ladi. Sababi, bu qo'shiq matnida asosan badiiy o'xshatish va eskirgan so'zlar ishlatilgan. B1 darajadan boshlab ushbu qo'shiqni turli topshiriqlar yordamida taqdim etishimiz mumkin. Shuningdek, undagi yangi so'zlar izohi bilan ham albatta tanishtirib o'tish lozim.

Tanlangan audiovizual material mazmunining hayotiyligi tamoyili.

Inson ongi shunday shakllanganki, u ko'rgani va eshitganini yaxshiroq eslab qoladi va qayta xotirlash, ularni tasavvur qilish xususiyatiga ega. Shunday ekan, audiovizual material orqali taqdim etilayotgan ma'lumot kishilik jamiyatida ro'y berishi mumkin bo'lgan voqealikka asoslangan bo'lishi lozim. Material tarkibidagi axborot til o'rganuvchining atrofida sodir bo'lgan hayotiy voqealar asosida tayyorlanganligi uning tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, biz biror filmni tomosha qilmoqchimiz. Namoyish etilayotgan film davomiyligi uzun bo'lsa, uni VideoCut rejimida kesib ixchamlashtirishimiz, faqatgina mavzuga taalluqli qismlarini taqdim etishimiz mumkin. Agar videoni kesib imkoniyati bo'lmasa yoki uning har bir detallariga ahamiyat berib tomosha qilish lozim bo'lsa, uni boshidan oxirigacha uyda tomosha qilish uchun topshirilishi maqsadga muvofiq.

Qanday holatda bo'lmasin, foydalanilayotgan film yoki boshqa turdagi audio-vizual material real voqealikka asoslangan bo'lishi auditoriya e'tiborini jalb qilish uchun xizmat qiladi. Qolaversa, hayotiy film tomoshabinni zerikish va tushunmay qolish xavfidan uzoqlashtiradi, natijada, e'tibor bilan tomosha qilingan film tushunarli va ta'limiy jihatdan samarali bo'ladi. Masalan, "Oqibat" nomli o'zbek filmni auditoriyaga taqdim etmoqchimiz. Film orqali biror mavzu yuzasidan muayyan lingvistik bilimlar berishimiz mumkin. Biroq, yuqorida qayd etilganidek, uni boshidan oxirigacha namoyish etishimiz vaqtdan yutkazishga olib kelishi, yoki o'rtada to'xtalishlarga sabab bo'lishi ehtimoli yuqori. Shuning uchun uning o'tilayotgan mavzuga mos qismlarini kesib olib taqdim etish lozim. Darsning "Post-watching" qismida mazkur film atrofida muammoli savollar o'rtaga tashlanishi ham

mumkin. “Filmda qanday muammoli vaziyatlar ko‘rsatilgan?” kabi.⁴¹ Yoki shu turdagi savollar tuzishni audiotoriya uchun mustahkamlovchi vazifa sifatida topshirish ham mumkin. Bu filmda ko‘rganlarini qayta hikoya qila olish qobiliyatini o‘stirish bilan birga, o‘zbek tilida o‘rganganlarini savol tarzida muloqot qila olish ko‘nikmasini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, audio-vizual material vositasida hikoya qilinayotgan ma’lumot ishonchli manbaa asosida tayyorlangan bo‘lishiga ham e’tibor berish lozim. Bu uning qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi va til o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytiradi.

Sanab o‘tilgan tamoyillarga qo‘shimcha ravishda o‘zbek tilini chet tili sifatida o‘qitishda audiovizual materiallardan foydalanish mobaynida quyidagi asosiy jihatlarga ham e’tibor qaratishimiz lozim:

- taqdim etilayotgan audio-vizual material mazmunining til o‘rganuvchining yosh xususiyatlariga mosligi;
- audio-vizual material audiotiriya darajasidan kelib chiqqan holda, ularning lingvistik bilim saviyasiga mos tarzda tanlanishi;
- til o‘rganuvchilarning jismoniy imkoniyatlari va ruhiy holatini hisobga olgan holda audiovizual materiallardan foydalanish;
- o‘zbek tilini chet tili sifatida o‘rganayotgan xorijlik shaxs uchun ushbu til madaniyati butunlay begona yoki aksincha, juda yaxshi tanish bo‘lishini hisobga olgan holda, audiovizual material uchun mavzu tanlanishi lozim.

Chet tillarni o‘qitish metodlari yo‘lida samarali izlanishlar olib borgan olim Ter-minasova zamonaviy til o‘rganuvchilar hozirda tilga ilmiy nazariy hodisa sifatida emas, balki hayotiy ehtiyoj sifatida qarayotganliklarini ta’kidlaydi. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, chet tilini o‘rganishga bo‘lgan yondashuv va qarashlar oqimi hayotiy misollarga boy, real voqelikka asoslangan ta’lim metodini qo‘llab-quvvatlamogda. Ko‘pgina olimlar bu borada chet tilini o‘qitishning ko‘plab vositalaridan — radioeshittirishlar, Feysbuk (Facebook) ijtimoiy tarmog‘i asosida chet tilini takomillashtirishga e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlashmogda. Ammo radio, ijtimoiy tarmoqlar, autentik matnlar yohud turli axborot kommunikatsiya texnologiyalaridagi dasturlar o‘quvchida lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik kompetentsiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan bir yoqlama vosita bo‘lib qolishi mumkin.⁴² Buning oldini olish uchun tomosha qilingan videomaterial asosida jonli suhbat va muhokamalar tashkil qilish, shuningdek, audiomateriallardan ham tinglab tushunish

⁴¹ Rucynski, J. 2011. Using *The Simpsons* in EFL classes. *English Teaching Forum* (49) 1: 8–17.

⁴² Thoman, E. 2003. Media literacy: A guided tour of the best resources for teaching. *The Clearing House* 76 (6): 278–83 [электронный ресурс] Режим доступа.: www.jstor.org/stable/30189851

mashqlari orqali uch bosqichli (Pre, While, Post) mustahkamlovchi manbaa sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. Ana shunda autentik videomateriallar til o‘rgatishda real hayotiy vaziyatning alternativ ko‘rinishi sifatida yordam beradi.

Bu metodni darsga tatbiq etish borasida olib borilgan o‘rganish va izlanishlar quyidagi xulosalarga olib keldi:

- audiovizual foydalanish, avvalo, til o‘rganuvchiga u yoki bu chet tilda muayyan ijtimoiy guruhlarning aniq bir vaziyatdagi, so‘zlashuv tilining barcha xususiyatlari (emotsional buyoqdorligi, nutq tezligi; mimika kabi) bilan yo‘g‘irilgan real muloqotni taqdim etadi. Bunday hayotiy til muhiti orqali til o‘rganuvchilar tilning me‘yor va talablari, leksika, mimika, verbal va noverbal muloqot turlari bilan yaqindan tanishadilar;

- autentik videomateriallar til o‘rganuvchilarda kommunikativ kompetentlikni asosiy ko‘rsatkichi bo‘lgan gapirish (speaking) va tinglab tushunish (listening) ko‘nikmalarini tezlik bilan real voqelikka asoslangan holda nutqda qo‘llanilgan qochirimlar, kinoyalar, mahalliy tilda so‘zlashuvchi kishilar — “native speaker” largagina ma’lum leksik birliklarning qo‘lanish o‘rinlari — diskursni o‘rgangan holda rivojlanishiga olib keladi.

- audiovizual materiallar nutq egasining fikrini psixoemotsional holati, yuz ifodalari, imo-ishoralari orqali o‘rganishga imkoniyat beradi. Shu bilan birga, insonning ruhiy holati bilan bog‘liq jarayon (xursandchilik, hayratlanish, qayg‘u, yig‘i kabilar) barcha madaniyatlarga xos va bu kabi tushunchalar tarjima talab etmaydi. Shunday ekan, bu metod o‘rganuvchilarga nutq yo‘nalishini kontekstni to‘liq tarjima qilmasdan tushunish imkonini beradi;

- audiovizual maeriallarni darsda qo‘llash o‘rganuvchilarga tayyor nutq namunasini taqdim etadi va bu til o‘rganuvchilarga nutqning talaffuz, intonatsiya, grammatik va leksik jihatlarini bevosita o‘rganish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ta’limda multimedia texnologiyalari nafaqat kompyuter va internetni bildiradi, balki audiovizual xarakterga ega OAVni ta’limga integratsiyalash ayni zamonaviy texnologiyaning bir ko‘rinishidir. Ommaviy axborot vositalari muhim ahamiyatga ega, chunki biz ulardan foydalanish orqali dunyo bilan tanishamiz; biz dunyoni tushunamiz va uni o‘zgartirishga harakat qilamiz. Media ta’lim turli xil ommaviy axborot vositalaridan talabalarga keladigan tasvirlar, so‘zlar va tovushlar uchun til o‘rganuvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shunday qilib, kelajakda har doim talabchanroq bo‘ladigan faol va tanqidiy media foydalanuvchilarini yaratish vazifasini ham o‘taydi.